

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY MILLAT MA‘RIFATPARVARI

Ibragimova Nigora

Buxoro davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbek davlatchiligida ma‘rifatparvar shaxslarni tarbiyalash, shaxs huquqi va erkinligi hamda davlat manfaatlarini himoya qilish orqali shaxs tinchligini va xavfsizligi ta‘minlash hamda yangi usul maktablarini barpo etish va mazkur maktablarda dunyoviy fanlarning ustuvorligiga erishish masalalari yuzasidan fikrlar to‘g‘risida mavzu yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ma‘rifat, publitsistik maqola, dunyoviy bilim, parokandalik, jaholat, davlat manfaatlari, dorilfunun, millatni homiysi, maorif.

Annotatsiya: V state rassmatrivayutsya voprosy vospitaniya prosveçennых lichnostey v uzbekskoy gosudarstvennosti, obespeçeniya lichnogo mira i bezopasnosti posredstvom zauçity prav i svobod lichnosti i interesov gosudarstva, a takje idei sozdaniya novometodных shkol i prioriteta svetskix nauk v etix shkolax.

Klyuchevые slova: prosveçenie, publitsisticheskaya statya, mirskie znaniya, smyatenie, nevejstvo, gosudarstvenные interesы, pokrovitel natsii, obrazovanie.

Abstract: The article examines the issues of education of enlightened individuals in the Uzbek statehood, ensuring personal peace and security through the protection of the rights and freedoms of the individual and the interests of the state, as well as the idea of creating new-method schools and the priority of secular sciences in these schools.

Key words: enlightenment, journalistic article, worldly knowledge, confusion, ignorance, state interests, patron of the nation, education.

Mahmudxo‘ja Behbudiy ota-bobolaridan qolgan muqaddas yurtning bosqinchilar tomonidan toptalayotgani, vatandoshlarining yildan-yilga parokandalanib, jaholat botqog‘iga botib borayotganini ko‘rgani uchun bu tarixiy reallik bilan murosa qila olmadi. Alloh unga uyg‘ok vijdonni ato etgan edi.

Behbudiy o‘z vaqtida tarixiy haqiqatni o‘zgartirish uchun, avvalo, millatni ma‘rifatlanggirish lozim, degan fikrga kelgan. Behbudiyning shu masalaga doir maqolalarini o‘qigan kitobxonlar o‘sha yillarda maktab va madrasalarning ham, muallimlarning ham yetishmaganligini, darslik va o‘quv qo‘llanmalari esa, anqoning urug‘i bo‘lganligini yaxshi bilishadi. Behbudiy shu holni e‘tiborga olib, o‘zi maktablar ochdi, o‘zi darslik va o‘quv qo‘llanmalarini yaratdi, dunyoviy fanlarning maktab o‘quv dasturlaridagi mavqeini oshirdi. Millatni ma‘rifatlashtirish Behbudiy va u rahbarlik qilgan jadid ma‘rifatparvarlari nazdida erk va hurriyat uchun kurashning muqaddimasi, “bismillo”si edi.

Behbudiyning millatni ma‘rifatlashtirish konsepsiyasi, birinchidan, yangi usul maktablarini ochish, ikkinchidan, bu maktablarda dunyoviy fanlarning ustuvorligiga erishish, uchinchidan, ularni zamonaviy darslik, o‘quv qo‘llanmalari va qurollari bilan

ta'minlash, to'rtinchidan, ota-onalarning to'y va ma'rakalarga sarflaydigan mablag'laridan bir hismini mahalliy maktabni bitirgan bolalarining xorijiy mamlakatlardagi dunyoviy va diniy oliy o'quv yurtlariga yuborish, beshinchidan, ularning turkiy, fors va arab tillaridan tashqari, rus va nemis yoki fransuz tillarini ham o'zlashtirishiga erishish, oltinchidan, zamonaviy sudya, huquqshunos, injener kabi Turkiston uchun noyob bo'lgan ixtisosliklar bo'yicha malakali mutaxassislarni tayyorlash masalalarini o'z ichiga olgan.

Behbudiy, - bolalarni hukumat maktablariga berilishini va talabalarni Makka, Madina, Misr, Istanbulg'a va Rossiyadagi dorilfununi va dorilsaltanatlariga yuborib, diniy va dunyoviy bilim olishga yuborilishini so'ragan. Chunki, o'z vaqtida Turkistonda muallimlarning ozligi, Kafkaz, Qrim, Orenburg va Qozon shaharlaridagi yangi usulidagi ta'lim maktablarida ta'sil olishga jo'natilishi va mazkur maktablariga o'qish uchun avvalo rus tilini o'rgatish orqali yuborish maqsadga muvofiqligini ko'rsatgan.¹³¹

Behbudiy ma'rifatparvarlik konsepsiyasi puxta ishlangani va shu konsepsiya asosida mukammal dasturning ham tuzilganiga ishonch hosil qilamiz. Behbudiy "A'molimiz yoinki murodimiz" degan va boshqa maqolalarida ma'rifiy karashlarini izchil bayon etar ekan, bolalar uchun tarbiyatxona - pansionatlar ochish, bolalarni shu tarbiyatxona va hukumat maktablariga tayyorlash uchun "Nashri maorif" yo "Jamiyati xayriya", yoki "Tarbiyati ag'fol" jamiyatlarini tashkil etishni lozim, deb hisoblaydi. "Toki bul jamiyat(lar), - deb yozgan u, xalqdan oqcha jamlab, millat bolalarini o'qutish va millatni oyandasi uchun kerak bo'laturg'an qozi, ya'ni sudya, zakunchi, ya'ni huquqshunos, injinir, ya'ni muhandis, muallim, ya'ni zamona maktabdori, millatni homiysi va xodimi, ya'ni Davlat Dumasiga deputat, milliy sanoatxonalarimizni isloh va ihyo etguvchi, ya'ni texnik, tijoratxona va bonkalarda bizga yordam berguvchi, ya'ni tijorat ilmini o'qug'on kommirsant, shahar dumalarig'a... bizni tarafdin kirib va saylanib, biz uchun, ... din, mubayyini islom uchun, zarufu uchun, fuqaro uchun ishlaydurg'an odamlarni yetushdurmak kerakdur"¹⁴¹

Behbudiy, Turkistonda tashkil etilgan "Nashri maorif" singari milliy tashkilotlar yordamida nafaqat Rossiya, balki Makka, Madina, Misr, Istanbul, pguningdek, turkiy xalkdar istiqomat qilgan Kavkaz, Qrim, Orenburg, Qozonga borib, shu yerdagi dorilfununlar yordamida ma'rifatli bo'lish, eng muqimi, davlat muassasalarida, tijorat sohalarida ishlay biladigan, Davlat dumasiga saylana oladigan kadrlarni tayyorlash orqaligina istiqol uchun kurashni mumkin va lozim deb bo'lgan. Davlat, sanoat va qishloq xo'jaligi, transport, fan va madaniyat sohalarida rahbar lavozimlarda ishlay oladigan kadrlarni voyaga yetkazish Behbudiy ma'rifatparvarlik konsepsiyasining piravard maqsadini tashkil etgan.

XX asr boshlarida Rossiyaning siyosiy hayotida ro'y bergan o'zgarishlar takozosi bilan Qrim, Kavkaz va Volgabo'yidagi musulmon xalqlarning peshqadamlari ham o'z partiyalarini tuzishga qaror qildilar. 1905 yil 15 avgustda Nijniy Novgorodga to'plangan Qrim, Kavkaz, Qozon, Ural va Sibir musulmonlarining vakillari chor oxrankasining ko'zini

¹³ Беҳбудий М. Танлаган асарлар. Тошкент: Маънавият, 1999. Б.159.

¹⁴ Кўрсатилган асар. Б. 159-160



shamg'alat qilish uchun Volga daryosida passajirlarga xizmat qiluvchi "Gustav Struve" paroxodini ijaraga olib, Rossiya musulmonlarining birinchi ta'sis qurultoyini o'tkazdilar.

Taraqqiyparvar Behbudiy qaerda yashamasin va qaerga bormasin, chor oxrankasi ularning har bir qadamini qatgiq nazorat qilgan. Shuning uchun u 1906 yilda Qozon, Nijniy Novgorod va Ufa shaharlariga go'yo sayohat maqsadida borgan va qurultoyda ko'tarilgan masalalardan Turkiya matbuoti orqali xabardor bo'lgan qilib ko'rsatadi.

Ma'rifat masalalari bilan band bo'lgan Behbudiy sekin-asta, davr taqozosi bilan, siyosiy-ijtimoiy muammolar girdobiga tortila boshlaydi. Bu o'sha davr uchun tabiiy va qonuniy jarayon edi. Nafaqat bolsheviklarning miting va namoyishlari, balki jadid gazeta va jurnallaridagi chiqishlarda ham islohotchilik g'oyalari ustuvorlik qila boshladi.

Erksevar kuchlar 1917 yil 26 noyabrda Qo'qonda yig'ilib, O'lka musulmonlarining favqulodda qurultoyida Turkiston Muxtoriyatining tuzilganini e'lon qildilar. Turkiston Muxtoriyati Rossiya tarkibidagi muxtor hukumat bo'lishiga qaramay, Turkistondagi taraqqiyparvar kuchlarning erk va hurriyatga erishish yo'lidagi jiddiy qadam edi. Binobarin, Turkiston muxtoriyatining e'lon qilinishi Behbudiy va uning maslakdosh do'stlari uchun tarixiy g'alaba bo'ldi. Muxtoriyatning kelajagiga katga umid bilan qaragan Behbudiy "Haq olinur, berilmas" degan maqolasida bunday so'zlarni yozdi: "O'zimizni muhofazatimiz uchun milliy jandarma, askarimiz bo'lur. Mamlakat xazinasidan boshka milliy va madaniy ishlarimizning masorafi uchun o'zimizning alohida xazinamiz bo'lur. Maktab va madrasalarimiz, vaqf va dorulqazolarimiz o'z qaramog'imizda bo'lur. Xulosai kalom, davlat va siyosat ishlaridan boshqa barcha ishlarimiz o'z ixtiyorimizda bulur"¹⁵

Ammo bu so'zlar Behbudiyning yashirin orzularigina bo'lib qoldi. Turkistonliklarga hatto Rossiya tarkibidagi muxtor o'lka bo'lishni ham ravo ko'rmagan bolsheviklar muxtoriyatga qarshi tish qayray bopshashdi. Muxtoriyat taqdiri xavf ostida qolganini ko'rgan Behbudiy "Hurriyat" gazetasining 1918 yil 26 yanvar sonida qozoq qardoshlarga ochiq xat bilan murojaat etib, ularni muxtoriyatni qo'llab-quvvatlashga chaqiradi.

Shu davrda yer yuzining boshqa bir pallasida yashagan serb, italyan, polyak kabi xalqlarning birlashib, mustaqillik yo'lida sa'y-harakat qilayotganini yaxshi bilgan Behbudiy qardosh xalq vakillarini tarixdan saboq olishga chaqirdi: "Ongli qozoqlar o'ylasinlar, - deb davom etdi u, tarixga qarasinlar, ziyoli qozoqlar Ovroponing ixtilofga solib, millatlarni ajratmoq siyosatig'a va ikki yuzligig'a qarasunlar edi. Birlashg'on Turkiston xalqining bo'lunmoqig'a o'zimiz sabab bo'lmasak edi. Barcha ixtilofchilar va boshqalar-da, albatta, zarar ko'rarlar va alar ila barobar tatarlar-da, biz-da mundan zarar ko'urmiz va ixtilofimizning jazosini tortarmiz. U kunlarimizda yig'larmiz, ammo foyda etmas".

Behbudiy bu so'zlarni yurak qoni va ko'z yoshlari bilan yozgan. Ammo u bashorat qilganidek, Turkiston xalqlari zulmga qarshi, bolsheviklarning "salib yurishi"ga qarshi birlasha olmadi. Muxtoriyat harbiy kuch bilan tugatilib, muxtoriyat kemasi qon daryosiga g'arq bo'ldi. Shu kungacha Rusiya davlatiga nisbatan samimiy munosabatda bo'lgan Behbudiy dunyokarashida portlash yuz berdi. Uning erk va hurriyat haqidagi orzulari chil-

¹⁵ Бехбудий М. Хақ олинур, берилмас ИИ Ёшлик. 1991, 10-сон. Б.42.



chil sindi. Endi uning ixtiyorida faqat bir yo‘l xoriждан, bolsheviklar davlatiga qarshi tish qayrab turgan xoriждан madad olish yo‘li qolgan edi. U shu yo‘lni tanladi. Lekin Behbudiyning hatto eng yaqin kishilarini ham qo‘rqitib yollagan GPU ayg‘oqchilari uni hamsafarlari bilan birga Qarshi yaqinida Buxoro amiriga tutib berdilar. Erk va hurriyat muborizi Behbudiy Qarshibegi tomonidan vahshiylarcha qatl etildi.

Adabiyotlar:

1. Behbudiy M. Hah olinur, berilmas II Yoshlik. 1991, 10-son. B.42.
2. Behbudiy M. Tanlagan asarlar. Toshkent: Ma‘naviyat, 1999. B.159.